

Seminar: Yangi Konstitutsiyaning ijrosini so'zsiz ta'minlashda davlat xizmatchilarining vazifalari



Bugun Surxondaryo viloyati hokimligida tashkilot, idora va boshqarmalar mutasaddilari, hududiy studiyalardan boshqaruv organlarining hududiy bo'linmalari mas'ullari ishtirokida Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini tushuntirish yuzasidan o'quv seminari o'tkazildi.

Unda spikerlar tomonidan Konstitutsiya ijrosini so'zsiz ta'minlash yuzasidan vazirlik va idoralarda amalga oshiriladigan birinchi navbatdagi ustuvor vazifalari, bosh qomusimizda asosiy printsipler, inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari hamda jamiyat va shaxs masalalari, davlat hokimiyatining tashkil etilishi hamda saylov tizimidagi fundamental vazifalar yuzasidan ma'ruzalar qilindi.

Davlat xizmatchilariga jamiyatda Konstitutsiyaning so'zsiz ijrosi, unga rioxalari etilishini ta'minlash bo'yicha vazifa, burch va majburiyatlar haqida batafsil ma'lumotlar berildi. Ishtirokchilarning savollariga spikerlar va mas'ullar tomonidan javob berildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)